



DUAL TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK LOGOPEDLARNING AKADEMIK MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Maxmudova M.S.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika kafedrasi dotsent, PhD

Tayanch so'zlar: dual ta'lim, oliy ta'lim, kasbiy faoliyat, talabalarda ijodkorlik, texnologiyalar, kasbiy motivatsiya, mustaqil faoliyat.

Ключевые слова: дуальное образование, высшее образование, профессиональная деятельность, творчество студентов, технологии, профессиональная мотивация, самостоятельная деятельность.

Key words: dual education, higher education, professional activity, students' creativity, technologies, professional motivation, independent activity.

Резюме:

Ushbu maqolada dual ta'lim sharoitida bo'lajak logopedlarning akademik mobilligini rivojlantirishning nazariy jihatlari, oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalarning auditoriya va undan tashqari paytlarda dual faoliyatini tashkil etish masalalari yoritilgan.

Резюме:

В данной статье рассматриваются теоретические аспекты развития академической мобильности будущих логопедов в условиях дуального образования, вопросы организации дуальной деятельности студентов в аудитории и вне ее при подготовке будущих специалистов к профессиональной деятельности. в высшем образовании.

Summary:

In this article, the theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in the conditions of dual education, the issues of organizing dual activities of students in the audience and outside of it in the preparation of future specialists for professional activities in higher education are covered.

Dual ta'lim muayyan bir sharoitda nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini birgalikda olib borish mexanizmi. Dual ta'lim tizimining asosiy ko'rinishi talabalarning bir vaqtning o'zida nazariy va mustaqil bilim olishlari ko'nikma va malakalarini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayonda talaba o'z ustida jiddiy ishlashi, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashi lozim.



Dual ta'lim - bu mutaxassislik uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallaydigan kasbiy ta'lim va kasbni bajarish uchun o'qitish tizimini ifodalaydi. Bu asosan oliy ta'lim hamda o'rta maktab ta'limi hamkorligida ham amalga oshirilishi mumkin. Dual ta'lim tizimining o'ziga xosligi shundaki, u talaba va ish beruvchi o'rtasida shartnoma bilan tartibga solinadigan hamkorlik aloqalarini vujudga keltiradi, natijada talabani amaliy o'qitishga nisbatan shartnoma tuzuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Dual ta'lim tizimining muhim jihati ish beruvchi va oliy ta'lim o'rtasidagi shartnoma munosabatlari bo'lib, dual ta'lim shartnomasi shaklini oladi.

O'zbekistonda uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan oliy ta'lim mazmunini xorijiy ilg'or tendensiyalar asosida takomillashtirish, pedagogik jarayonga axborot kommunikatsion texnologiyalarni intensiv joriy etish, ta'lim oluvchilarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning samarali usullarini tatbiq etish masalasi milliy pedagogikada dolzarb mavzuga aylangan. Xususan, turli sohalar bo'yicha oliy ta'limning o'quv rejalarida modullarga tegishli soatlar tarkibida mustaqil ta'lim soatlari alohida ajratib berilgan bo'lib, aynan shu ta'lim jarayonida talabalarning faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish muammosiga ustuvorlik berilmoqda.

Talabalarning dual ta'limini samarali tashkil etishda uchraydigan tashkiliy-pedagogik to'siqlarni bartaraf etish masalalari milliy va xorijiy pedagogika amaliyotida muayyan darajada o'rganilgan.

Oliy ta'limda dual ta'limning muhim jihati talabalarda ijodkorlikni, kasbiy malakalarni, axborot bilan ishlash motivatsiyasini rivojlantirishga hamda bo'lajak mutaxassislarning kelajak faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etish yo'llarini tanlashga o'rgatishidir.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda dual ta'limga oid o'quv jarayonini tayyorlashda loyiha texnologiyasini qo'llash ham o'z ijobiy ta'sirini beradi. Talabalarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantirish, o'rganilayotgan sohaga oid o'quv materiallari bo'yicha kasbiy bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish, tanqidiy fikrlash, faolligini oshirish, shaxsiy, guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, bevosita va bilvosita interfaollik, refleksiya uchun metakognitiv tajriba hamda qobiliyatni shakllantirish, har qanday ta'lim yo'nalishi doirasida mavzusi yo'naltirilgan ta'lim o'zgaruvchanligini ta'minlash, nazariy va amaliy tavsifdagi fanlararo vazifalarni hal etish; retseptiv, produktiv faoliyatni rivojlantirish, dual ta'lim jarayonida ijobiy munosabatni shakllantirish, o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasining umumiy ko'nikma va malakalarini egallash imkonini beradi.

Amaliyotda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yoxud ta'lim oluvchilarning dual faoliyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan mustaqil faoliyat o'quv jarayoni tuzilmasidagi ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari va seminarlarda talabalarning o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni o'zlashtirishlari, mustaqil ravishda mustahkamlashi, amalda qo'llashi, masalalar ishlashi, turli hisoblash ishlarini bajarishlari deb tushnilsa, ba'zilar, talabalarning dual ta'limini o'qituvchi yordamisiz mustaqil tarzda o'ylab, tahlil qilish, natijalarni ifodalashi deb e'tirof etiladi.

M.E.Dmitriev tomonidan oliy ta'lim o'qituvchilarining axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali dual ta'limni samarali tashkil etish mexanizmi yoritilgan. Olimning fikricha AKTning ta'lim mazmuniga optimallasuvi samaradorlikka erishish jarayonini intensivlashtiradi.

Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalarning auditoriya va undan tashqari paytlarda mustaqil faoliyatini tashkil etish hamda bu jarayonda talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni baholash mezonlari qator olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, S.M. Bulavina til o'qitish jarayonida talabalarning faolligi va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanishga oid tavsiyalarni amaliyotga joriy etgan.

M.V.Perovanning ilmiy izlanishida AKT ta'sirida pedagogik tizimlar transformatsiyasi tadqiq etilgan. Bunda ta'lim jarayonini dasturli pedagogik komplekslar asosida tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlar nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

L.A.Osipova bo'lajak matematika o'qituvchilarining auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etish kasbiy kompetensiyani shakllantirishning muhim sharti ekanligi asoslab bergan.

Oliy ta'lim didaktikasida talabalarning dual ta'limi ularda ijodiy faollikni tarkib toptiruvchi asosiy yo'l deb qaraladi. Chunki dual ta'lim talabalarda tashabbusni, maqsadga erishish uchun qat'iylik, irodalilikni rivojlantiradi, faktlar va vaziyatlarni mustaqil ravishda tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini egallash imkonini beradi. Bundan tashqari dual ta'lim ijodiy rivojlanishning muhim mezoni bo'lgan mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Mustaqil bajarilgan va maqsadga yo'nalgan harakatlar nazariy bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirishda etakchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

N.A.Odinakova o'zining mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy ishida ta'lim oluvchi va beruvchi o'rtasidagi o'zaro ishonchli munosabatlarning o'quv topshiriqlarni to'laqonli



bajarishda muhim omil ekanligi hamda innovatsion yondashuvlar vositasida dual ta'limning tashkil etilishi kutilgan natijalarga erta va samarali erishish vositasi ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Ma'lumki, rivojlangan davlatlarda nufuzli oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muntazam rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Natijada yoshlarda zamonaviy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga oid davlat va jamiyatning ijtimoiy vazifalarini hal etishda oliy ta'lim muassasalariga mas'uliyat yuklanadi. Shu jihatdan olganda etakchi davlatlarda oliy ta'lim yoshlar tomonidan hayotiy strategiyalarni belgilab olish uchun muhim bosqich hisoblanadi.

V.B. Bolshov o'zining ilmiy izlanishlarida oliy ta'limning yoshlar tomonidan hayotiy strategiyalarni belgilab olishlaridagi o'rni siyosiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan .

Oliy ta'limda pedagogik jarayonning sifatli tashkil etilishi o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlarga nisbatan tezkor amaliy munosabat bildirishiga ham bevosita bog'liqdir. Pedagogik muhit nafaqat auditoriya soatlarida, balki darsdan tashqari paytlarda talabalarning dual ta'limi jarayonini tashkil etishga oid shakllarda ham amalga oshiriladi. Shuning uchun milliy va xorijiy olimlarning oliy ta'lim samaradorligini oshirishga oid ilmiy izlanishlarida ma'ruza, amaliy, seminar, dual ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etishning metodik aspektlari tadqiq etilgan.

V.B.Moiseev tomonidan Oliy ta'limda o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, asosan ta'limiy texnologiyalarning xilma-xilligini ta'minlash shart-sharoitlari aniqlangan.

Ye.V.Dangauzer oliy ta'limda "Pedagogika" fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini optimallashtirish bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmi sifatida tadqiq qilgan.

N.V.Lomonosova tomonidan axborotlashgan sharoitda oliy ta'limda aralash o'qitishning kompleks imkoniyatlari ochib berildi. Olimning tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan, ya'ni Bolonya ta'lim tizimi tamoyillariga yo'naltirilgan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilgan.

G.Yu.Titova tomonidan olib borilgan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyalariga oid tadqiqotida dual ta'limni samarali tashkil etishning innovatsion-pedagogik sharoitlari ilmiy asoslab berilgan.

T.V.Rixter innovatsion ta'lim sharoitida oliy ta'lim talabalari uchun onlayn kurslarda nazorat tizimining o'ziga xosligini tahlil qilgan.



Xulosa qilib aytish mumkinki, maqolaning konsepsiyasi oliy ta'lim mazmuni va o'quv jarayonini tashkil etilishi bilan bog'liq muammolarni hal etilishiga yo'naltirilganligi bois, mamlakat milliy pedagogikasi olimlarining mazkur ta'lim tizimida olib borgan tadqiqot ishlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratdik. Olimlarning ilmiy ishi natijalari asosida amaliyotga joriy etilgan internet texnologiyalari asosida dual o'quv jarayonlarini tashkil etish metodikasiga oid tavsiyalaridan logopediya yo'nalishi talabalarining dual ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini belgilab olishda tayanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Zimnyaya I.A. Shaxsning kompetentsiyasi – ta'lim natijasini yangi sifati // Ta'lim sifati muammolari. -2 kitob XII Butunrossiya materiallari- Uchrashuv. –M.; Ufa: Mutaxassislarni tayyorlashda sifat muammolari tadqiqot markazi, 2003.-B.4-13
2. Novikov A.M. Ta'lim metodikasi.M.: EGVES, 2006.-492 b.
3. Maxmutov M. I. Ta'limning kasbiy yo'nalishi printsiplari / Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda ta'lim tamoillari // Universitetlararo ilmiy ishlar to'plami.- Chelyabinsk, 1985.—S .52-56
4. Kasb-hunar ta'limi ensiklopediyasi: 3 jildda/ ED. S. Ya. Ba—tisheva.-M., 1999- yil.
5. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi.-T.: O'zMU ,2003. 156-b.
6. [http s://Uzbekistan.ureport.in/story/364/](http://Uzbekistan.ureport.in/story/364/)